

ROBINDRANAT TAGORNING IJTIMOYIY-FALSAFIY QARASHLARI.



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-404-408>

Nuridinov Javohir Izomovich

TDIU “Falsafa” kafedrasi tayanch doktoranti

nriddinov.javohir@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada hind mutafakkiri va Nobel mukofoti sovrindori Robindranat Tagorning ijtimoiy-falsafiy qarashlari tahlil qilinadi. Maqolada uning insonparvarlik, erkinlik, ta’lim, diniy va dunyoviy qarashlari, millatchilik va madaniyatlararo muloqot haqidagi g’oyalari o’rganilgan. Shuningdek, Tagorning jamiyat taraqqiyotiga doir qarashlari, uning Sharq va G’arb sivilizatsiyasi haqidagi fikrlari hamda ma’naviy kamolot masalasiga bo’lgan yondashuvi yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko’ra, Tagor insonning ma’naviy erkinligi va ma’rifatini jamiyat rivojlanishining asosiy omili deb hisoblagan. Uning falsafasi bugungi globallashuv davrida ham dolzarb ahamiyatga ega ekani aniqlangan.

Kalit so’zlar: Robindranat Tagor, falsafa, insonparvarlik, ma’rifat, erkinlik, millatchilik, jamiyat, ta’lim, Sharq va G’arb, madaniyat.

Аннотация. В данной статье анализируются социально-философские взгляды индийского мыслителя и лауреата Нобелевской премии Rabindranath Tagore. В статье рассматриваются его идеи гуманизма, свободы, образования, религиозных и светских взглядов, национализма и межкультурного диалога. Также исследуются взгляды Тагора на развитие общества, взаимоотношения восточной и западной цивилизаций, а также его подход к проблеме духовного совершенствования. Результаты исследования показывают, что Тагор рассматривал духовную свободу и просвещение человека как основной фактор общественного развития. Установлено, что его философские идеи сохраняют свою актуальность и в условиях современной глобализации.

Ключевые слова: Рабиндранат Тагор, философия, гуманизм, просвещение, свобода, национализм, общество, образование, Восток и Запад, культура.

Abstract. This article analyzes the socio-philosophical views of the Indian thinker and Nobel Prize laureate Rabindranath Tagore. The study examines his ideas on humanism, freedom, education, religious and secular perspectives, nationalism, and intercultural dialogue. It also explores Tagore’s views on social development, the relationship between Eastern and Western civilizations, and his approach to spiritual perfection. The findings of the research indicate that Tagore considered spiritual freedom and enlightenment of the individual as the main factors of social progress. It is concluded that his philosophical ideas remain highly relevant in the context of contemporary globalization.

Keywords: Rabindranath Tagore, philosophy, humanism, enlightenment, freedom, nationalism, society, education, East and West, culture.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Hindiston ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotida katta o'zgarishlar yuz berdi. Mustamlakachilik siyosati, milliy ozodlik harakatlari va ma'naviy uyg'onish jarayonlari hind jamiyatining yangi tafakkur shakllarini yuzaga keltirdi. Ana shunday murakkab tarixiy sharoitda yashab ijod qilgan Robindranat Tagor nafaqat buyuk adib, balki chuqur falsafiy tafakkur egasi sifatida ham tanildi. U o'z asarlarida inson erkinligi, ma'naviy kamolot, tinchlik va jamiyat taraqqiyoti kabi masalalarni keng yoritdi.

Robindranat Tagor 1861-yilda Kalkuttada ziyoli oilada tug'ilgan. U yoshligidan Sharq va G'arb madaniyatini chuqur o'rgandi. Tagor she'riyat, nasr, dramaturgiya, musiqa va falsafa sohalarida samarali ijod qildi. 1913-yilda "Gitanjali" asari uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'lib, Osiyoda ushbu mukofotni qo'lga kiritgan birinchi ijodkor bo'ldi. Uning ijodi va falsafasi butun dunyoda katta qiziqish uyg'otdi.

Tagor qarashlarining asosiy markazida inson va uning ma'naviy mohiyati turadi. U insonni tabiat bilan uyg'unlikda yashashi kerak bo'lgan mavjudot sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, insonning haqiqiy baxti boylik yoki siyosiy hukmronlikda emas, balki ma'naviy erkinlik va ruhiy poklikda namoyon bo'ladi. Shu sababli Tagor falsafasi insonparvarlik ruhiga sug'orilgan.

Tagor o'z davridagi keskin millatchilik va zo'ravonlik siyosatini tanqid qilgan. U milliy ozodlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlagan bo'lsa-da, insoniyat manfaatlarini milliy manfaatlardan ustun qo'ygan. Uning fikricha, haddan tashqari millatchilik xalqlar o'rtasida dushmanlik va urushlarni kuchaytiradi. Shu bois u xalqlar o'rtasidagi madaniy muloqot va o'zaro hurmatni targ'ib qilgan. Tagor Yevropadagi agressiv millatchilik siyosatini tanqid qilib, uning urushlarga sabab bo'lishini ta'kidlagan. Shu bilan birga, u Hindiston mustaqilligini qo'llab-quvvatlagan, biroq zo'ravon kurash usullarini ma'qullamagan. Mutafakkir xalqaro hamkorlik va madaniy muloqotni qo'llab-quvvatlagan. Uning fikricha, har bir xalq o'z milliy qadriyatlarini saqlashi kerak, ammo boshqa xalqlarga nisbatan hurmat va bag'rikenglikni yo'qotmasligi zarur.

Tagor falsafasining markaziy g'oyasi insonparvarlik hisoblanadi. U barcha insonlarni yagona ma'naviy oilaning a'zolari deb bilgan. Uning fikricha, insonning millati, dini yoki irqi emas, balki insoniy fazilatlarini muhimdir. Tagor inson qalbini ilohiy go'zallik manbai sifatida talqin qiladi. U insonning ichki dunyosi boy bo'lsa, jamiyat ham rivojlanadi deb hisoblaydi. Shu sababli u insonning ma'naviy kamolotiga katta ahamiyat bergan. Mutafakkirning qarashlarida sevgi va mehr insoniyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida namoyon bo'ladi. Mutafakkir muhabbatni inson qalbini poklovchi va uni ilohiy haqiqatga yaqinlashtiruvchi kuch deb talqin qilgan[2:71]. Shu sababli uning asarlarida muhabbat va insonparvarlik mavzulari markaziy o'rin egallaydi. U nafrat va zo'ravonlikni inson tabiatiga zid hodisa deb hisoblagan. Ayniqsa, Birinchi jahon urushi davrida Tagor urush siyosatini qattiq tanqid qilgan. Faylasuf erkinlikni inson hayotining eng muhim qadriyati deb bilgan. Biroq uning erkinlik haqidagi tushunchasi faqat siyosiy erkinlik bilan cheklanmaydi. U insonning ruhiy va ma'naviy erkinligini birinchi o'ringa qo'yadi. Tagorning fikricha, inson qo'rquv, jaholat va mutaassiblikdan xalos bo'lsagina haqiqiy erkinlikka erishadi. Shu sababli u ma'rifatni erkinlikning asosiy sharti sifatida ko'rsatadi. Uning mashhur

she'rlaridan birida “Aql qo‘rquvdan xoli bo‘lgan joyda” degan g‘oya ilgari suriladi[6:63]. Tagorning erkin fikrlash va mustaqil tafakkurga bergan yuksak bahosini ko‘rsatadi.

Tagor Sharq va G‘arb sivilizatsiyalari o‘rtasidagi uyg‘unlik tarafdori bo‘lgan. U G‘arbning ilm-fan va texnika sohasidagi yutuqlarini e‘tirof etgan, biroq uning haddan tashqari hayot tarzini tanqid qilgan. Sharq madaniyatining asosiy ustunligi sifatida Tagor ma‘naviyat va ruhiy qadriyatlarni ko‘rsatgan. Uning fikricha, insoniyat taraqqiyoti moddiy va ma‘naviy qadriyatlarning uyg‘unligiga bog‘liq.

Robindranat Tagorning ijtimoiy-falsafiy qarashlari universal xarakterga ega bo‘lib, bugungi globallashuv davrida ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Uning insonparvarlikka asoslangan falsafasi zamonaviy jamiyatdagi ko‘plab ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim nazariy asos bo‘lishi mumkin. Hozirgi davrda dunyoning turli hududlarida milliy va diniy nizolar kuchayib borayotgan bir paytda, Tagorning bag‘rikenglik va xalqlar o‘rtasidagi hamkorlik haqidagi g‘oyalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. U insoniyatni yagona ma‘naviy makon sifatida tasavvur qilgan. Bu qarash bugungi global integratsiya jarayonlariga mos keladi. Tagorning ta‘lim haqidagi qarashlari ham zamonaviy pedagogika bilan hamohangdir. Bugungi innovatsion ta‘lim tizimlarida ham ijodkorlik, mustaqil fikrlash va shaxsning individual qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy vazifa sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, Tagorning “Shantiniketan” tajribasi zamonaviy ta‘lim konsepsiyalarining dastlabki namunalaridan biri hisoblanadi. Tagor erkinlikni faqat siyosiy tushuncha sifatida emas, balki ma‘naviy hodisa sifatida talqin qilgan. Bu yondashuv uni ko‘plab siyosiy mutafakkirlardan ajratib turadi. Uning fikricha, insonning ichki dunyosi erkin bo‘lmasa, tashqi erkinlikning qiymati bo‘lmaydi. Mazkur qarash bugungi axborot asrida ham muhimdir, chunki inson ongiga turli mafkuraviy bosimlar kuchayib bormoqda. Tadqiqot davomida Tagorning ayrim qarashlari pedagogik xarakterga ega ekani ham kuzatildi. Masalan, u zo‘ravonliksiz ma‘naviy uyg‘onish orqali jamiyatni tubdan o‘zgartirish mumkin deb hisoblagan. Biroq tarixiy tajriba ayrim hollarda siyosiy kurashlarning muqarrarligini ko‘rsatadi. Shunga qaramay, Tagorning tinchlik va insonparvarlikka asoslangan qarashlari insoniyat uchun muhim axloqiy mezon bo‘lib qoladi. Tagorning Sharq va G‘arb madaniyati haqidagi qarashlari ham alohida ahamiyatga ega. U ikki sivilizatsiyani qarama-qarshi qo‘ymasdan, ularning ijobiy jihatlarini uyg‘unlashtirishga harakat qilgan. Bugungi madaniyatlararo muloqot sharoitida bu yondashuv muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, Tagor san‘at va adabiyotning tarbiyaviy ahamiyatiga katta e‘tibor bergan. U san‘atni inson qalbini poklovchi va jamiyatni ma‘naviy yuksaltiruvchi kuch deb bilgan. Hozirgi ommaviy madaniyat sharoitida ushbu qarashlar ham dolzarb hisoblanadi.

Robindranat Tagor ijodida din va ma‘naviyat masalasi alohida o‘rin tutadi. U dini faqat marosimlar, urf-odatlar yoki muayyan aqidalar tizimi sifatida emas, balki inson qalbining ichki poklanishi, ruhiy kamoloti va butun insoniyatni birlashtiruvchi ma‘naviy kuch sifatida talqin qilgan. Tagorning diniy-falsafiy qarashlari Sharq falsafasi, hinduizm, buddaviylik, upanishadlar ta‘limoti va umumjahon gumanistik qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bilan birga, uning qarashlari o‘ziga xos

universal xarakterga ega bo‘lib, barcha dinlarga hurmat va bag‘rikenglik ruhida shakllangan.

Tagorning din haqidagi qarashlari uning “Sadhana”, “The Religion of Man”, “Gitanjali” va boshqa ko‘plab asarlarida chuqur ifodalangan. U dinni inson qalbini yuksaltiruvchi, uni ezgulikka chorlovchi va ma‘naviy uyg‘unlikka olib boruvchi kuch deb hisoblagan. Mutafakkirning fikricha, haqiqiy din insonning ichki dunyosida yashaydi. Agar din insonni mehr-oqibat, muhabbat va insonparvarlikka undamasa, u o‘z mohiyatini yo‘qotadi. Robindranat Tagor dinni insonning ichki ruhiy ehtiyoji sifatida talqin qilgan. Uning fikricha, haqiqiy din tashqi marosimlar yoki aqidalar bilan emas, balki inson qalbidagi ezgulik, muhabbat va ma‘naviy poklik bilan belgilanadi. Tagor diniy mutaassiblikni tanqid qilib, din insonlarni ajratmasligi, aksincha ularni birlashtirishi kerakligini ta‘kidlagan[1:41]. Mutafakkirning fikricha, dinning asosiy maqsadi inson qalbini komillikka yetkazishdir. Tagor diniy mutaassiblik va aqidaparastlikka qarshi chiqqan. U dinning mohiyatini tashqi marosimlarda emas, balki inson qalbidagi ezgulik va muhabbatda deb bilgan. Uning fikricha, din insonni birlashtirishi kerak, ammo tarix davomida ayrim hollarda din odamlarni bir-biridan ajratish vositasiga aylangan. Shu sababli Tagor diniy fanatizmni insoniyat uchun xavfli hodisa sifatida baholagan. Tagor “The Religion of Man” asarida insonni ilohiy mohiyatga ega mavjudot sifatida tasvirlaydi. Unga ko‘ra, inson qalbida ilohiy nur mavjud bo‘lib, insonning vazifasi ushbu nurni rivojlantirishdan iborat[1:57]. Bu qarash Sharq mistik falsafasidagi “borliq birligi” g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Tagor diniy bag‘rikenglik tarafdori bo‘lgan. Mutafakkir barcha dinlarning mohiyatida insonparvarlik va ezgulik mavjud deb hisoblagan. U dinlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni dinning o‘zidan emas, balki insonlarning noto‘g‘ri talqinlari va manfaatlaridan kelib chiqadi deb baholagan[2:32]. Shu sababli u turli din vakillari o‘rtasidagi muloqot va hamkorlikni qo‘llab-quvvatlagan. Mutafakkirning diniy qarashlari hinduizm ta‘limotiga yaqin bo‘lsa-da, u biror dinning 407edago ustunligini tan olmagan. Tagor barcha dinlarda umumiy axloqiy qadriyatlar mavjud deb hisoblagan. U insonning diniy mansubligidan qat‘iy nazar, uning qalbidagi ezgulikni asosiy mezon deb bilgan.

Tagor ma‘naviyatni inson hayotining eng muhim qismi deb bilgan. Uning fikricha, insonning haqiqiy boyligi moddiy ne‘matlar emas, balki uning ichki ma‘naviy dunyosidir[3:18]. Shu sababli u ma‘naviy kamolotni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ko‘rsatadi. U moddiy taraqqiyotning o‘zi jamiyatni baxtli qila olmasligini ta‘kidlagan. Uning fikricha, insonning ichki ma‘naviy dunyosi rivojlanmasa, jamiyatda axloqiy inqiroz yuz beradi. Shu sababli u ma‘naviy kamolotni inson va jamiyat taraqqiyotining asosiy omili deb bilgan.

Tagorning qarashlarida inson qalbi ilohiy go‘zallik manbai sifatida talqin qilinadi. U insonning ma‘naviy rivojlanishi orqali jamiyatda tinchlik va adolat qaror topishini ta‘kidlaydi[2:45]. Mutafakkirning fikricha, inson ma‘naviy jihatdan rivojlanmasa, texnika va moddiy taraqqiyot jamiyatni baxtli qila olmaydi. U G‘arb sivilizatsiyasining haddan tashqari yo‘nalishini tanqid qilib, ma‘naviy qadriyatlar ustuvor bo‘lishi kerakligini qayd etgan[4:74]. Tagorning ma‘naviy qarashlari shakllanishida qadimgi

hind falsafasi, ayniqsa upanishadlar katta ta'sir ko'rsatgan. Upanishadlarda inson va borliq o'rtasidagi uyg'unlik, ruhiy poklanish va ilohiy haqiqatga intilish g'oyalari ilgari suriladi[5:112]. Tagor ushbu qarashlarni zamonaviy talqin qilgan. Uning fikricha, inson tabiatning ajralmas qismi bo'lib, u tabiat bilan uyg'un yashashi kerak. Tabiatdan uzoqlashish insonning ma'naviy tanazzuliga sabab bo'ladi. Shu bois Tagor tabiatni ilohiy go'zallikning ifodasi sifatida ko'rgan. Sharq falsafasidagi “ruhiy birlik” g'oyasi Tagor qarashlarining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. U insoniyatni yagona ma'naviy oilaning a'zolari deb bilgan. Uning fikricha, insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat va hamkorlik ilohiy uyg'unlikning namunasidir.

Tagorning qarashlarida buddaviylik ta'limotining ta'siri ham mavjud bo'lib, u zo'ravonlikni insoniyat uchun xavfli hodisa deb hisoblagan va tinchlikni eng oliy qadriyat sifatida talqin qilgan[7:91]. Alloma buddaviylikdagi rahm-shafqat va zo'ravonlikdan voz kechish g'oyalarini ham yuqori baholagan. U zo'ravonlik inson tabiatiga zid ekanini ta'kidlagan va tinchlikni insoniyatning eng oliy qadriyati deb bilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Robindranat Tagor Sharq falsafasi va jahon madaniyati tarixida muhim o'rin tutgan buyuk mutafakkirdir. Uning ijtimoiy-falsafiy qarashlari insonparvarlik, ma'naviy erkinlik, bag'rikenglik va ma'rifat g'oyalariga asoslangan. Tagor insonning ma'naviy kamolotini jamiyat taraqqiyotining asosiy omili deb hisoblagan. U zo'ravonlik, millatchilik va jaholatga qarshi chiqib, tinchlik va madaniy hamkorlikni targ'ib qilgan. Tagorning ta'lim haqidagi qarashlari bugungi zamonaviy 408edagogic tamoyillar bilan uyg'unlik kasb etadi. Uning erkin fikrlash, ijodkorlik va insoniy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan g'oyalari hozirgi ta'lim tizimi uchun ham muhimdir. Shuningdek, Tagorning Sharq va G'arb madaniyati o'rtasidagi uyg'unlik haqidagi qarashlari globallashuv davrida alohida ahamiyat kasb etadi. Uning falsafasi bugungi kunda ham insoniyatni tinchlik, hamkorlik va ma'naviy yuksalishga chorlovchi muhim manba bo'lib qolmoqda. Robindranat Tagorning din va ma'naviyat haqidagi qarashlari chuqur insonparvarlik va universalizm g'oyalariga asoslanadi. U dini inson qalbini poklovchi, uni ezgulikka yetaklovchi ma'naviy kuch deb bilgan. Tagor diniy bag'rikenglik, ma'naviy erkinlik va axloqiy komillikni jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti sifatida talqin qilgan. Mutafakkirning ma'naviyat haqidagi qarashlari bugungi globallashuv davrida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Uning insonparvarlik, bag'rikenglik va ma'rifatga asoslangan falsafasi zamonaviy insoniyat uchun muhim ma'naviy yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Tagore R. The Religion of Man. London: George Allen & Unwin, 1931.
2. Tagore R. Sadhana: The Realisation of Life. London: Macmillan, 1916.
3. Tagore R. Creative Unity. London: Macmillan, 1922.
4. Tagore R. Nationalism. New York: Macmillan, 1917.
5. Radhakrishnan S. Indian Philosophy. Oxford University Press, 1923.
6. Tagore R. Gitanjali. London: Macmillan, 1913.
7. Das G. The Spiritual Thought of Rabindranath Tagore. New Delhi, 2001.